

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**TUROPERATOR VA MEHMONXONA XIZMATLARINI SERTIFIKATLASHTIRISH
TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son **Farmonini** bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi bilan birgalikda ushbu qaror kuchga kirguncha berilgan turoperator va mehmonxona xizmatlari sertifikatlarini uch oy muddatda xatlovdan o‘tkazsin.

3. Ushbu qaror chiqqungacha sertifikatlashtirish organlari tomonidan berilgan turoperator va mehmonxona xizmatlarining muvofiqlik sertifikatlari ularning amal qilish muddati tugaguncha amal qilishi belgilab qo‘yilsin.

4. Vazirliklar va idoralar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari R.S. Azimov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2017-yil 5-iyun,
355-son

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-iyundagi 355-son qaroriga
ILOVA

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “**Turizm to‘g‘risida**”, “**Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida**”gi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son **Farmoniga**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2016-yil 2-dekabrda PQ-2666-son **qaroriga** muvofiq turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish va inspeksiya nazorati tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizomda nazarda tutilmagan turistik xizmatlarning alohida turlarini, jumladan umumiy ovqatlanish tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, turistlarga transport xizmatlari ko‘rsatishni sertifikatlashtirish O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (keyingi o‘rinlarda “O‘zstandart” agentligi deb ataladi) tomonidan belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan sertifikatlashtirish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2. Tadbirkorlik subyektlari faqat belgilangan tartibda tegishli sertifikatlar olingandan keyin va ularning amal qilish muddati davomida turoperatorlik va mehmonxona xizmatlari ko‘rsatish huquqiga egadirlar.

Muvofiqlik sertifikatining (keyingi o‘rinlarda sertifikat deb ataladi) amal qilish muddati berilgan sertifikatni har yili tasdiqlagan holda uch yildan iboratdir.

Sertifikatning asl nusxasi bevosita sertifikatlashtirish obyektida turadi va u uchinchi shaxslarga berilmaydi.

Amaldagi sertifikatsiz turoperatorlik va mehmonxona xizmatlari ko'rsatish qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

3. Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish, joylashtirish vositalariga toifa berish hamda sertifikatlashtirilgan turoperator va mehmonxona xizmatlarining standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar (keyingi o'rinlarda normativ hujjat deb ataladi) talablariga muvofiqligining inspeksiya nazorati, O'zbekiston Respublikasining Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi, belgilangan tartibda akkreditlangan "Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi" DUK (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) tomonidan, milliy sertifikatlashtirish organi — "O'zstandart" agentligi bilan mustahkam hamkorlikda amalga oshiriladi.

4. Turoperator va mehmonxona xizmatlarining standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha sertifikatlashtirish ushbu Nizomning 1-[ilovasiga](#) muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Oldingi tahrirga qarang.

4¹. Oilaviy mehmon uylari xizmatlarini sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

(4¹-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-avgustdagi 631-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 09/18/631/1638-son)

5. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

sertifikatlashtirish obyektlari — turoperator va mehmonxona xizmatlari;

turoperator xizmatlari — turistlar bilan tuzilgan shartnoma asosida ularning ehtiyojlariga muvofiq ko'rsatiladigan, turistik operator (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati ko'rsatish, ekskursiyalar, bo'sh vaqtni va shu kabilarni tashkillashtirish) xizmatlari;

Oldingi tahrirga qarang.

mehmonxona xizmatlari — joylashtirish vositalarida (mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualar, dam olish uylari va zonolari, pansionatlar, kempinglar, motellar, o'tovli oromgohlar va normativ hujjatlar talablari taalluqli bo'lgan boshqa joylashtirish vositalari) vaqtinchalik yashash joyi berish bo'yicha xizmatlar;

(5-bandning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-avgustdagi 631-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 09/18/631/1638-son)

ariza beruvchi — sertifikatlashtirish obyektini sertifikatlashtirishga ariza bergan yuridik shaxs;

sertifikat egasi — sertifikat berilgan yuridik shaxs;

sertifikatlashtirish — sertifikatlashtirish obyektining normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha faoliyat;

joylashtirish vositalarini tasniflash tizimi (tasniflash tizimi) — normativ hujjatda belgilangan, binolar, jihozlar, ko'rsatilayotgan xizmatlar turlari va sifati, xizmat ko'rsatish darajasiga doir talablar majmuiga asoslangan tegishli toifani joylashtirish vositalariga berish uchun ko'rsatilayotgan mehmonxona xizmatlarining sifatini baholash tizimi. Toifalar yulduz (yulduzlar) ko'rinishidagi belgi bilan belgilanadi, ularning soni (bittadan beshtagacha) xizmat ko'rsatish sifati darajasiga bog'liq;

sertifikat — turoperator va mehmonxona xizmatlari sifatini va ularning muayyan normativ hujjatga muvofiqligini tasdiqlaydigan hujjat;

muvofiqlik belgisi — xizmatning muayyan normativ hujjatga muvofiqligini ko'rsatish uchun xizmatlarga doir ilova hujjatlari uning bilan tamg'alanadigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgi;

bitim — sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llash huquqini berish to'g'risidagi bitim.

2-bob. Sertifikatlashtirish tartibi

1-§. Sertifikatlashtirish uchun ariza berish

6. Sertifikatlashtirish uchun ariza beruvchi ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda, shaxsan o'zi, pochta aloqa vositalari orqali yoki elektron shaklda Markazga sertifikatlashtirish uchun ariza (keyingi o'rinlarda ariza deb ataladi) beradi.

7. Turoperator xizmatlarini sertifikatlashtirish uchun arizaga arizachining imzosi va muhri (mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlangan quyidagilar ilova qilinishi kerak:

normativ hujjatlar talablariga binoan turizm sohasida ma'lumotga va/yoki malaka sertifikatlariga ega bo'lgan arizachining xodimlari to'g'risida ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi ma'lumotlar;

turoperator xizmatlari ko'rsatish jarayonida favqulodda holatlar yuzaga kelganda arizachi xodimlarining harakat qilish rejasi;

ko'chmas mulkka doir huquqni belgilaydigan hujjatlar, shu jumladan bunday mulkning ijara shartnomasi;

ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda arizachi tomonidan turoperator xizmatini tashkillashtirish uchun tuzilgan shartnomalar (transport va ekskursiya xizmatiga, joylashtirish, gid-tarjimonlar xizmatiga, ovqatlanish, ko'ngilochar va dam olish, turagentlik xizmatlariga hamda turistlarni qabul qiluvchi davlatlardagi xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan shartnomalar va boshqalar) ro'yxati. Ilgari turoperator xizmatlari ko'rsatmagan arizachilar sertifikat olingandan keyin olti oy davomida ko'rsatib o'tilgan shartnomalar ro'yxatini taqdim qilish to'g'risida kafolat xatini Markazga taqdim etishlari lozim;

turist arizasi, turoperator xizmatlari ko'rsatishga doir namunaviy shartnoma namunalari;

turizm xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida, mamlakatga kirish/chiqish uchun zarur hujjatlar, bojxona va viza qoidalari to'g'risida, xavfsizlik choralari, o'zini tutish qoidalari va tashrif buyurilayotgan mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari, sug'urtalash, vaksinatsiya zarurati, cheklovlar va qarama-qarshi ko'rsatmalarning mavjudligi va boshqalar to'g'risidagi axborot materiallari.

8. Mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish uchun arizaga arizachining imzosi va muhri (mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlangan quyidagilar ilova qilinishi kerak:

normativ hujjatlar talablariga binoan turizm sohasida ma'lumotga va/yoki malaka sertifikatlariga ega bo'lgan arizachining xodimlari to'g'risida ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi ma'lumotlar;

vakolatiga xavfsizlikka rioya etishni nazorat qilish va normativ hujjatning belgilangan talablariga joylashtirish vositasining muvofiqligini tasdiqlash kiradigan, vakolatlangan nazorat organlarining (yong'in va sanitariya-gigiyena xavfsizligi, gaz qurilmalari va lift jihozlaridan xavfsiz foydalanish) xulosa va dalolatnomalari (ariza kelib tushgan kungacha bir yildan kech bo'lmagan vaqtda tuzilgan) nusxalari. Yangidan tashkil etilgan joylashtirish vositalari uchun ulardan foydalanish kunidan boshlab bir yil davomida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar o'rniga davlat komissiyasining foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomasi nusxasi ham taqdim etilishi mumkin;

ko'chmas mulkka doir huquqni belgilaydigan hujjatlar, shu jumladan bunday mulkning ijara shartnomasi;

mehmonxona xizmatlari ko'rsatish jarayonida favqulodda holatlar yuzaga kelganda arizachi xodimlarining harakat qilish rejasi;

mehmonlar xavfsizligi va xizmat ko'rsatish (dezinfeksiya to'g'risida, yong'in signalizatsiyasi tizimi va liftlarga texnik xizmat ko'rsatish to'g'risida) sifatini ta'minlash bo'yicha tegishli xizmatlar bilan shartnomalar nusxalari;

farroshlar xizmati va ovqatlanish joylari ishchilarining tibbiy daftarchalari nusxalari;

mehmonxona xizmatlari ko'rsatish tartibi va ulardan foydalanish qoidalari to'g'risidagi axborot materiallari.

9. Arizachining xohishiga ko'ra arizachining ko'rsatilayotgan xizmatlarning normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlar arizaga ilova qilinishi mumkin.

2-§. Sertifikatlashtirish to'g'risida qaror qabul qilish

10. Ariza kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni davomida Markaz arizani ko'rib chiqadi va sertifikatlashtirishni amalga oshirish to'g'risida yoki sertifikatlashtirishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi.

11. Sertifikatlashtirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi asoslarga binoan qabul qilinadi:

arizada to'liq bo'lmagan hajmdagi ma'lumotlarni ko'rsatish;

ushbu Nizomning 7 yoki 8-bandlarida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar va ma'lumotlarning to'liq bo'lmagan hajmda taqdim qilinishi;

ariza, hujjatlar va ma'lumotlar sifatining sertifikatlashtirish maqsadlari uchun zarur bo'lgan axborotni aniqlashga imkon bermasligi.

Sertifikatlashtirishni ushbu bandda ko'rsatib o'tilmagan asoslar bo'yicha rad etish mumkin emas.

12. Markaz qaror qabul qilgandan keyin ikki ish kuni mobaynida arizachiga quyidagilarni yuboradi:

sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risida — sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risidagi qaror va Markazning bank hisob rekvizitlari, sertifikatlashtirishga to'lanadigan haq miqdori va muddati ko'rsatib o'tilgan sertifikatlashtirish to'g'risidagi shartnoma. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar (xizmatlar) narxi ushbu Nizomning 5-ilovasiga binoan to'lovlarning miqdorini e'tiborga olgan holda hisoblanadi;

sertifikatlashtirishni rad etish to'g'risida — rad etishning muayyan asoslangan sabablari ko'rsatilgan holda qaror.

13. Arizachi qarorni olgandan keyin o'ttiz kun mobaynida Markazning bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan sertifikatlashtirish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha haq to'lashi va Markaz bilan sertifikatlashtirish to'g'risida shartnoma imzolashi shart.

14. Ushbu Nizomning 13-bandida ko'rsatib o'tilgan shartlar buzilgan taqdirda Markazning sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risidagi qarori bekor qilinadi, bu to'g'rida arizachi ikki ish kuni mobaynida xabardor qilinadi.

3-§. Sertifikatlashtirish

15. Ushbu Nizomning 13-bandida ko'rsatib o'tilgan shartlar arizachi tomonidan bajarilgandan keyin uch ish kuni davomida Markaz rahbarining buyrug'i bilan komissiya tarkibi va sertifikatlashtirish maqsadi, obyektlari, hajmi va uning bo'yicha ishlar mazmunini aniqlaydigan sertifikatlashtirish dasturi tasdiqlanadi.

Komissiya ishini rejalashtirish va muvofiqlashtirishni Markazning sifat bo'yicha ekspert-auditorlari orasidan tayinlanadigan uning raisi amalga oshiradi.

16. Komissiya raisi komissiya tarkibi tasdiqlangan kundan boshlab besh ish kuni davomida taqdim qilingan arizani hamda unga ilova qilingan hujjatlar va ma'lumotlarning normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tahlil qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra komissiya raisi xulosa chiqaradi, unda arizachi tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlarda nomuvofiqliklar yo'qligi yoki mavjudligi to'g'risida ko'rsatib o'tiladi, uning nusxasi arizachiga sertifikatlashtirish tugaguncha ularni bartaraf etish uchun yuboriladi.

17. Komissiya tomonidan sertifikatlashtirish obyektining normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash (keyingi o'rinlarda audit deb ataladi):

turoperator xizmatlari uchun — arizachining joylashgan joyida o'tkaziladi;

mehmonxona xizmatlari uchun — joylashtirish vositasining joylashgan joyida o'tkaziladi.

Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar va ma'lumotlarning normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tahlil qilish tugallangan kundan boshlab uch ish kundan keyin komissiya baholashni o'tkazishni boshlashi kerak. Baholash muddati 10 ish kundan oshmasligi lozim.

18. Baholashni o'tkazish uchun arizachi komissiyaga normativ hujjatlar talablariga binoan zarur hujjatlarni taqdim etishi va uning ishlashi uchun sharoitlar yaratishi lozim.

Bunda arizachidan, taqdim qilinayotgan xizmatlarni sertifikatlashtirishga tegishli bo'lmagan hujjatlarni berishni va ularni baholashni amalga oshirishni talab qilish mumkin emas.

19. Baholash vaqtida normativ hujjatlar talablariga sertifikatlashtirish obyektining aniq muvofiqligi, shu jumladan quyidagilar tekshiriladi:

a) xodimlarning malakasi, ularning o'z lavozim yo'riqnomalarini bilishlari va unga rioya qilishlari;

b) sertifikatlashtirish obyektining holati va jihozlanganligi;

v) arizachining xavfsizlikni ta'minlash tizimi talablariga rioya qilishi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati.

20. Sertifikatlashtirish obyektining normativ hujjatlar talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda ushbu Nizomning **6-ilovasiga** muvofiq shakl bo'yicha sertifikatlashtirish obyektining nomuvofiqligi to'g'risida protokol tuziladi.

21. Mehmonxona xizmatlarini baholash o'tkazilayotganda quyidagilar majburiy shartlar hisoblanadi:

10 tagacha nomerga ega bo'lgan joylashtirish vositalarining nomerlarini to'liq tekshirish;

10 tadan ko'p nomerga ega bo'lgan joylashtirish vositalarining nomerlarini tanlab tekshirish (15 % dan 30 % gacha);

joylashtirish vositalarining boshqa xonalari va jihozlari to'liq tekshirish.

Nomerlarni tanlash komissiya raisi tomonidan amalga oshiriladi va joylashtirish vositasining haqiqiy holatining aniqligini ta'minlashi kerak.

Agar arizachining ikki yoki undan ortiq joylashtirish vositalari mavjud bo'lsa har bir joylashtirish vositasi bo'yicha alohida sertifikatlashtirish o'tkaziladi.

22. Agar arizachi o'zining joylashtirish vositasiga toifa berilishiga da'vogar bo'lsa, bu to'g'rida arizada ko'rsatib o'tilishi kerak, mehmonxona xizmatlarini baholash vaqtida komissiya ushbu joylashtirish vositasini tasniflash tizimiga binoan uning tegishli toifaga muvofiqligini aniqlaydi. Baholash davomida ushbu Nizomning **7-ilovasiga** muvofiq shakl bo'yicha joylashtirish vositasini tasniflash protokoli tuziladi.

23. Baholash davomida ushbu Nizomning **8-ilovasiga** muvofiq shakl bo'yicha sertifikatlashtirish obyektini baholash protokoli tuziladi.

24. Ish natijalariga ko'ra komissiya ushbu Nizomning **9-ilovasiga** muvofiq shakl bo'yicha, qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi sertifikatlashtirish obyektini baholash dalolatnomasini ikki nusxada tuzadi.

Sertifikatlashtirish obyektini baholash dalolatnomasida sertifikatlashtirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa axborot qo'shimcha tarzda aks ettirilishi mumkin.

25. Sertifikatlashtirish obyektini baholash dalolatnomasiga sertifikatlashtirish obyektini baholash protokoli, mehmonxona xizmatlari uchun — joylashtirish vositalarini tasniflash protokoli, nomuvofiqliklar aniqlangan holatlarda — sertifikatlashtirish obyektining nomuvofiqligi to'g'risida protokollar hamda sertifikatlashtirishning barcha bosqichlarida komissiya tomonidan to'plangan boshqa hujjatlar ilova qilinadi. Sertifikatlashtirish obyektini baholash dalolatnomasi va protokollarning ikkinchi nusxasi arizachiga imzo qo'ydirib beriladi.

4-§. Sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish

26. Komissiya raisi sertifikatlashtirish obyektini baholash dalolatnomasi tuzilgan kundan boshlab ikki ish kuni davomida ushbu dalolatnomani Markazga taqdim etadi.

27. Sertifikatlashtirish obyektini baholash dalolatnomasi taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni davomida Markaz quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

sertifikat berish to'g'risida (mehmonxona xizmatlariga nisbatan sertifikat berish to'g'risidagi qarorda joylashtirish vositasiga tasniflash tizimiga binoan tegishli toifani berish to'g'risida ko'rsatib o'tilishi mumkin);

sertifikat berishni rad etish to'g'risida — agar aniqlangan nomuvofiqliklar baholash vaqtida arizachi tomonidan bartaraf etilmagan bo'lsa.

Qaror sertifikatlashtirishda ishtirok etmagan sifat bo'yicha ekspert-auditor tomonidan tayyorlanadi va Markaz rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

28. Sertifikat egasi va Markaz o'rtasida tuzilgan kelishuvga asosan muvofiqlik belgisidan foydalaniladi va u sertifikatning amal qilish muddati davomida sertifikatlashtirish obyektida Markaz tomonidan inspeksiya nazorati o'tkazilishi orqali tasdiqlanishi lozim.

29. Qaror qabul qilingan kundan boshlab bir kun muddatda ushbu qaror arizachiga yuboriladi.

Sertifikat berish to'g'risidagi qarorda arizachiga Markaz bilan bitimni imzolash shartlari va muddatlari hamda sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llashga to'lov to'lash uchun Markazning bank hisobi rekvizitlari ko'rsatib o'tiladi.

Sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llash uchun to'lov miqdorini ushbu Nizomning [5a-ilovasiga](#) muvofiq arizachining o'zi mustaqil hisoblaydi.

30. Sertifikat berish to'g'risidagi qaror olingan kundan boshlab o'ttiz kun davomida arizachi sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llashga to'lov hisobini Markazga taqdim etishi, Markazning bank hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan ushbu to'lovni to'lashi hamda Markaz bilan bitimni imzolashi kerak.

31. Ushbu Nizomning [30-bandida](#) ko'rsatib o'tilgan shartlardan biri buzilgan holatlarda Markazning sertifikat berish to'g'risidagi qarori bekor qilinadi, bu to'g'rida arizachiga bildirish xati yuboriladi. Bunda sertifikatlashtirish to'g'risida shartnoma bo'yicha to'langan to'lov arizachiga qaytarib berilmaydi.

32. Sertifikat berishni rad etish uchun asos bo'lgan muayyan sabablar ko'rsatib o'tilgan, sertifikat berishni rad qilish to'g'risidagi qaror arizachiga yuboriladi. Arizachi qarorni olgan kundan boshlab o'ttiz kun davomida ko'rsatib o'tilgan sabablarni bartaraf etadi va ularning bartaraf etilganini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim qiladi.

33. Sertifikat berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar arizachi tomonidan o'z vaqtida bartaraf etilgan holatlarda, nomuvofiqliklarning bartaraf etilganini tasdiqlovchi barcha hujjatlar bilan ularni bartaraf etish to'g'risidagi tegishli ariza arizachidan olingan kundan boshlab uch kunidan oshmaydigan muddatda bepul ravishda, faqat nomuvofiqliklar bartaraf etilganligini tasdiqlash uchun o'tkaziladigan sertifikatlashtirish bosqichi amalga oshiriladi.

Bunda komissiya taqdim etilgan hujjatlar asosida avval tuzilgan dalolatnomaga qo'shimcha ravishda sertifikatlashtirish obyektini baholash dalolatnomasini tuzadi.

Sertifikatlashtirish obyektini baholashning qo'shimcha dalolatnomasida sertifikat berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar arizachi tomonidan bartaraf etilganligi to'g'risida axborot ko'rsatiladi.

34. Komissiyaning qo'shimcha dalolatnomasi olingan kundan boshlab ikki ish kunidan oshmaydigan muddatda Markaz ushbu Nizomning [27-bandiga](#) muvofiq qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilingan kundan boshlab bir ish kuni davomida ushbu qaror arizachiga yuboriladi.

Bunda yangi asoslar bo'yicha sertifikat berishning rad etilishi mumkin emas.

35. Sertifikat berishni rad etish to'g'risidagi qarorda ko'rsatib o'tilgan muddat tugagandan keyin taqdim qilingan sertifikatlashtirish talablarini bajarish to'g'risidagi ariza yangidan berilgan deb hisoblanadi.

5-§. Sertifikat berish

36. Sertifikat blankasi qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi, hisobga olish raqami va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi, blankalar Markazga blankalarni zarur miqdorda beradigan O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi buyurtmasiga binoan "Davlat belgisi" davlat ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan tayyorlanadi.

37. Arizachi ushbu Nizomning [30-bandida](#) ko'rsatib o'tilgan shartlarni bajargan kundan boshlab ikki ish kuni mobaynida, Markaz ushbu Nizomning [10](#) va [11-ilovalariga](#) binoan shaklda sertifikatni rasmiylashtiradi va uni Sertifikatlashtirish milliy tizimining Davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazadi.

Markaz arizachining tegishli tarzda vakolatlangan vakiliga sertifikatni imzolab beradi.

38. Amaldagi sertifikat uning egasiga muvofiqlik belgisini qo'llash huquqini, mehmonxona xizmatlariga nisbatan esa — joylashtirish vositalarini tasniflash tizimiga muvofiq berilgan toifani qo'llashga huquq beradi. Turoperator va mehmonxona xizmatlari ko'rsatish vaqtida

amaldagi sertifikat egalari muvofiqlik belgisidan sertifikatning amal qilish muddati davomida o'zlarining reklama va axborot materiallarida foydalanishlari mumkin.

Arizachining xohishiga ko'ra mehmonxona xizmatlari uchun sertifikatda tasniflash tizimi bo'yicha joylashtirish vositasining toifasi ko'rsatiladi yoki ko'rsatib o'tilmaydi.

Joylashtirish vositalariga nisbatan har bir joylashtirish vositasiga alohida sertifikat beriladi.

39. Sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan faoliyatni keyinchalik amalga oshirish uchun sertifikatning amal qilish muddati tugaguncha uch oydan kech bo'lmagan vaqtda sertifikat egasi ushbu Nizomning **2-ilovasiga** muvofiq shaklda qayta sertifikatlashtirishni o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan Markazga murojaat qilishi kerak.

40. Sertifikat egasi:

normativ hujjatlarga va ushbu Nizom talablariga, bitim shartlariga rioya qilishi;

xizmatlarga doir sertifikatni qo'llash va ilova hujjatlarini muvofiqlik belgisi bilan belgilash qoidalariga va normativ hujjatlar talablariga binoan joylashtirish vositalariga berilgan toifani ishlatish qoidalariga rioya qilishi;

barcha manfaatdor shaxslar uchun sertifikat bilan bemalol tanishish imkoniyatini ta'minlashi;

ushbu Nizomning **2, 3 va 4-illovalariga** muvofiq shakllarda taqdim qilingan ma'lumotlarning o'zgarishi va menejmenti tizimidagi, ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatidagi o'zgarishlar to'g'risida Markazga bir oy davomida axborot berishi;

o'z sertifikatini qo'llash huquqini uchinchi shaxslarga bermasligi;

faoliyatni to'xtatish, qaytadan tashkil etish yoki joylashgan joyini yoki xizmat ko'rsatish joyini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz kun davomida sertifikatning asl nusxasini ilova qilgan holda Markazga yozma xabar berishi;

sertifikat egasini tugatish, uning faoliyatini to'xtatish, uning qaytadan tashkil etilishi yoki qayta sertifikatlashtirishdan bosh tortish vaqtida sertifikatning amal qilish muddati tugaguncha o'zining xizmat ko'rsatishini to'xtatishini ta'minlashi kerak, ushbu Nizom 64-bandining "**b**" **kichik bandiga** muvofiq sertifikatni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berish bilan bog'liq o'zgartirishlar bundan mustasno.

3-bob. Sertifikatlashtirish obyektining inspeksiya nazorati

41. Inspeksiya nazorati sertifikatlashtirish vaqtida belgilangan normativ hujjatlar talablariga sertifikatlashtirish obyektining muvofiqligini tasdiqlash maqsadida uning davriy qayta baholanishining tartib-taomili hisoblanadi.

Inspeksiya nazoratini o'tkazish muddati 10 ish kunidan oshmasligi kerak.

42. Markaz inspeksiya nazoratini o'tkazish davrini belgilaydi va O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi veb-saytida Inspeksiya nazoratini o'tkazish rejasini joylashtiradi.

43. Inspeksiya nazoratini o'tkazish uchun Markaz rahbarining buyrug'i bilan komissiya tarkibi, inspeksiya nazoratini o'tkazish muddati va dasturi tasdiqlanadi.

Markazning sifat bo'yicha ekspert-auditorlari orasidan komissiya raisi tayinlanadi.

44. Inspeksiya nazorati boshlanguncha o'n ish kunidan kech bo'lmagan vaqtda Markaz sertifikat egasiga bu to'g'rida ma'lum qiladi va ushbu Nizomning **5-ilovasiga** binoan, to'lov miqdorlarini e'tiborga olgan holda hisoblanadigan inspeksiya nazoratini o'tkazish narxi to'g'risida xabar beradi.

Sertifikat egasi inspeksiya nazoratini boshlash kunigacha besh kundan kech bo'lmagan vaqtda inspeksiya nazoratini o'tkazish to'lovi to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni Markazga taqdim qilishi lozim.

45. Inspeksiya nazoratini o'tkazishga o'z vaqtida to'lov to'lanmaganda yoki inspeksiya nazoratini o'tkazish rad etilganda Markaz sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qiladi.

46. Inspeksiya nazorati ushbu Nizomning **17 — 26-bandlarida** belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Bunda komissiya sertifikatning asl nusxasi mavjudligini tekshiradi va inspeksiya nazoratining natijalari salbiy bo'lganda sertifikat egasidan sertifikatning asl nusxasi olib qo'yiladi, bu to'g'risida inspeksiya nazorati dalolatnomasida ko'rsatib o'tiladi. Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha Markazning qarori chiqarilguncha sertifikat egasi o'z faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

47. Rejadagi inspeksiya nazorati bitim asosida o'tkaziladi.

Sertifikatlashtirishdan keyin:

birinchi rejadagi inspeksiya nazorati sertifikat berilgandan keyin kamida olti oy o'tgandan so'ng o'tkaziladi;

ikkinchi va uchinchi rejadagi inspeksiya nazorati avvalgi inspeksiya nazorati o'tkazilgandan keyin kamida o'n ikki oy o'tgandan so'ng o'tkaziladi.

Qayta sertifikatlashtirishdan keyin rejadagi inspeksiya nazorati sertifikatning amal qilish muddati davomida ikki marta o'tkaziladi.

48. Inspeksiya nazoratining dalolatnomasi taqdim etilgan kundan boshlab besh ish kuni davomida Markaz quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

a) inspeksiya nazoratining natijalari ijobiy bo'lganda — sertifikatning amal qilishini tasdiqlash to'g'risida. Mehmonxona xizmatlariga nisbatan qarorda tasniflash tizimiga binoan joylashtirish vositasining tegishli toifasini tasdiqlash yoki o'zgarishi to'g'risida ko'rsatib o'tilishi mumkin;

b) inspeksiya nazoratining natijalari salbiy bo'lganda — sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risida. Mehmonxona xizmatlariga nisbatan qarorda joylashtirish vositalari toifasini qo'llashga vaqtinchalik taqiq ko'rsatib o'tiladi.

Qaror inspeksiya nazoratida ishtirok etmagan sifat bo'yicha ekspert-auditor tomonidan tayyorlanadi va Markaz rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

49. Inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha qabul qilingan qaror uning qabul qilingan kundan boshlab ikki ish kuni davomida sertifikat egasiga yuboriladi.

50. Markaz sertifikatning amal qilishini tasdiqlash to'g'risidagi qaror qabul qilingandan keyin uning egasiga sertifikatning asl nusxasini beradi.

51. Sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarorda aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun o'ttiz kunlik muddat ko'rsatib o'tiladi.

Belgilangan muddat davomida sertifikat egasi aniqlangan nomuvofiqliklarni bartaraf etishi va bu to'g'rida Markazga ularning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi barcha hujjatlar bilan ariza taqdim qilishi mumkin.

52. Sertifikat egasidan sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish uchun asos bo'lgan nomuvofiqliklarning bartaraf etilganligi to'g'risida tegishli ariza barcha tasdiqlovchi hujjatlar bilan o'z vaqtida Markazga kelib tushgan holatlarda komissiya taqdim etilgan hujjatlar asosida avval tuzilgan dalolatnomaga sertifikat obyekti inspeksiya nazoratining qo'shimcha dalolatnomasini uch kun muddatda tuzadi.

Bunda inspeksiya nazoratining qo'shimcha dalolatnomasini tuzish uchun to'lov undirilmaydi.

Bunda komissiya taqdim etilgan hujjatlar asosida avval tuzilgan dalolatnomaga sertifikatlashtirish obyekti inspeksiya nazoratining qo'shimcha dalolatnomasini tuzadi.

Sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish uchun asos bo'lgan sabablar sertifikat egasi tomonidan bartaraf etilganligi to'g'risidagi axborot inspeksiya nazoratining qo'shimcha dalolatnomasida ko'rsatiladi.

53. Komissiyaning qo'shimcha dalolatnomasi olingan kundan boshlab uch ish kundan oshmaydigan muddatda Markaz quyidagilar to'g'risida qaror qabul qiladi:

a) inspeksiya nazoratining natijalari ijobiy bo'lganda — sertifikatning amal qilishini tasdiqlash to'g'risida. Mehmonxona xizmatlariga nisbatan qarorda tasniflash tizimiga binoan joylashtirish vositasining tegishli toifasini tasdiqlash yoki o'zgarishi to'g'risida ko'rsatib o'tilishi mumkin;

b) inspeksiya nazoratining natijalari salbiy bo'lganda — sertifikatning amal qilishini to'xtatish to'g'risida. Mehmonxona xizmatlariga nisbatan qarorda joylashtirish vositalari toifasini qo'llashga taqiq ko'rsatib o'tiladi.

Bunda inspeksiya nazoratining dalolatnomasida ko'rsatib o'tilmagan yangi nomuvofiqliklar bo'yicha sertifikat amal qilishini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin emas.

54. To'xtatib turish to'g'risida qarorda ko'rsatib o'tilgan muddat tugagach Markazga kelib tushgan sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish uchun asos bo'lgan nomuvofiqliklarning bartaraf etilganligi to'g'risidagi ariza ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

55. Quyidagi holatlarda ham sertifikatning amal qilishi to'xtatiladi:

a) sertifikatning amal qilish muddati tugaganda;

b) sertifikatning amal qilishini to'xtatish to'g'risida sertifikat egasining arizasi bo'yicha;

v) sertifikat egasidan faoliyatni tugatish yoki to'xtatish to'g'risidagi ariza bo'yicha — faoliyatni tugatish yoki to'xtatish kundan boshlab;

g) sertifikat egasini tugatish yoki uning faoliyatini to'xtatish to'g'risida nazorat yoki ro'yxatga olish organlaridan olingan axborot bo'yicha — sertifikat egasi tomonidan tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab;

d) sertifikat egasi qayta tashkil etilganda — qayta tashkil etish kundan boshlab, agar sertifikat egasi bunday qaror qabul qilingan kundan boshlab o'ttiz kun davomida sertifikatni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza bilan Markazga murojaat qilgan bo'lsa, mazkur qayta o'zgartirishlar bundan mustasno;

e) sertifikat egasining joylashgan joyi yoki sertifikatda ko'rsatib o'tilgan xizmatlarni ko'rsatish joyi o'zgarganda, agar sertifikat egasi tegishli qaror qabul qilish kundan boshlab o'ttiz kun davomida Markazga sertifikatni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilgan bo'lsa, mazkur holat bundan mustasno;

j) ushbu Nizomning 45-band va 48-bandining "b" kichik bandiga muvofiq sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish uchun asos bo'lgan sabablar bartaraf etilmagan holatlarda — Markaz tomonidan tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab.

56. Ushbu Nizom 53-bandining "b" kichik bandi va 55-bandining "j" kichik bandiga muvofiq sertifikatning amal qilishi to'xtatilgan tadbirkorlik subyekti Markazning to'xtatish to'g'risidagi qarori chiqqan kundan boshlab uch oy o'tgach sertifikatlashtirish obyektining sertifikatlashtirilishi o'tkazilishi to'g'risida ariza bilan Markazga murojaat qilish huquqiga ega.

57. Sertifikatning amal qilishi to'xtatilishi to'g'risidagi qaror u qabul qilingan kundan boshlab uch ish kuni davomida sertifikat egasiga yuboriladi.

58. Rejali inspeksiya nazorati bo'yicha ishlarga haq to'lash bitimda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Inspeksiya nazoratining narxi ushbu Nizomning 5-ilovasiga binoan to'lovlar miqdorini e'tiborga olgan holda hisoblanadi.

59. Sertifikat quyidagi dalillar aniqlangan holatlarda sud qarori bo'yicha bekor qilinishi mumkin:

a) sertifikat soxta hujjatlardan foydalanib olinganda;

b) Markazning sertifikat berish to'g'risidagi qarori noqonuniy deb topilganda.

Sertifikatni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilinganda sertifikat Sertifikatlashtirish milliy tizimining Davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab bekor qilingan hisoblanadi.

60. Tadbirkorlik subyekti sertifikatini ushbu Nizom 59-bandining "a" kichik bandiga muvofiq bekor qilingan bo'lsa, u bekor qilish to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan boshlab olti oy o'tgach sertifikatlashtirish obyektining sertifikatlashtirilishini o'tkazish to'g'risida ariza bilan Markazga murojaat qilish huquqiga ega.

61. Sertifikatning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror kelib tushgan kundan boshlab sertifikat egasi turoperator va mehmonxona xizmatlari ko'rsatish uchun yangi shartnomalar tuzishni to'xtatib turishi va Markaz tomonidan belgilangan muddatda nomuvofiqliklarni bartaraf etish choralarini ko'rishi lozim.

62. Sertifikatning amal qilishini to'xtatish yoki sertifikatni bekor qilish to'g'risidagi qaror kelib tushgan kundan boshlab sertifikatning amal qilishi to'xtatilgan yoki sertifikati bekor qilingan tadbirkorlik subyekti mavjud shartnomalar bo'yicha turoperator va mehmonxona xizmatlari ko'rsatishni va yangi shartnomalar tuzishni to'xtatishi kerak.

63. Sertifikat amal qilishining to'xtatib turilishi va to'xtatilishi sertifikat, muvofiqlik belgisi va joylashtirish vositasining toifasini qo'llash huquqini to'xtatib turadi yoki to'xtatadi.

Tadbirkorlik subyekti sertifikatning amal qilishi to'xtatib turilgan, to'xtatilgan yoki sertifikati bekor qilingan bo'lsa, u o'zining sertifikatlashtirilgan xizmati (sertifikati) borligi to'g'risida ma'lum qilish huquqiga ega emas.

4-bob. Sertifikatni qayta rasmiylashtirish, uning dublikatini berish

64. Markaz tomonidan sertifikatni qayta rasmiylashtirish quyidagi holatlarda bitim asosida amalga oshiriladi:

a) sertifikatlashtirish arizasida ko'rsatib o'tilgan sertifikat egasining joylashgan joyi (pochta manzili) yoki xizmat ko'rsatish joyi o'zgargani to'g'risida ariza bilan sertifikat egasining murojaatida, lekin ushbu ariza haqiqiy o'zgarishlar boshlanishidan keyin o'ttiz kun davomida Markazga taqdim qilingan bo'lishi shart;

b) sertifikat egasining uni qayta tashkil etish to'g'risidagi ariza bilan murojaatida, lekin ushbu ariza qaror qabul qilingan va qayta tashkil etilgandan keyin o'ttiz kun davomida Markazga taqdim qilingan bo'lishi shart;

v) inspeksiya nazorati natijalari bo'yicha joylashtirish vositalarining toifasini o'zgartirishda.

65. Ushbu Nizom 64-bandining "a" va "b" kichik bandlarida ko'rsatib o'tilgan holatlarda Markaz ariza kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni davomida sertifikat egasining arizasi asosida ushbu sertifikatni qayta rasmiylashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi, ushbu arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

avval berilgan sertifikatning asl nusxasi;

qayta tashkil etish zaruratini tasdiqlovchi hujjatlarning sertifikat egasining imzosi va muhri (mavjud bo'lsa) bilan tasdiqlangan nusxalari;

ushbu Nizomning 5-ilovasiga binoan miqdorda sertifikatni qayta rasmiylashtirish uchun to'lov to'langanligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi.

66. Ushbu Nizom 64-bandining "b" va "v" kichik bandlarida ko'rsatib o'tilgan holatda qaror qabul qilgan kundan boshlab uch ish kuni davomida sertifikatni qayta rasmiylashtirish bepul amalga oshiriladi.

67. Qabul qilingan qaror uning qabul qilingan kundan boshlab uch ish kundan kech bo'lmagan vaqtda sertifikat egasiga yuboriladi, shundan so'ng Markaz qayta rasmiylashtirilgan sertifikatni uning egasiga beradi.

68. Qayta rasmiylashtirilgan sertifikatning amal qilish muddati avval uning egasiga berilgan sertifikatning amal qilish muddatiga muvofiq bo'ladi.

69. Sertifikat egasining xohishiga ko'ra Markaz u bilan qayta rasmiylashtirilgan sertifikatning amal qilish muddati yuzasidan yangi bitim tuzadi.

70. Yo'qolgan yoki yaroqsiz holatga kelgan sertifikat o'rniga Markaz sertifikat egasining arizasiga binoan, ariza olingan kundan boshlab besh kun davomida uning dublikatini beradi.

Ariza bilan ushbu Nizomning 5-ilovasiga binoan miqdorda sertifikat dublikatini berish uchun to'lov to'langanligini tasdiqlovchi hujjat birga taqdim etilgan shart bo'yicha, bitim asosida sertifikatning dublikati beriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

71. Sertifikat egalari va arizachilar tomonidan taqdim etilgan arizalar va ularga ilova qilingan hujjatlar va ma'lumotlarda ko'rsatib o'tilgan axborotlarning ishonchliligiga ularning o'zlari javobgar bo'ladilar.

72. Markaz belgilangan tartibda sertifikat berish to'g'risida va berishni rad qilish, sertifikat amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish yoki sertifikatlarni bekor qilish to'g'risidagi qarorlar hisobini yuritadi.

73. Berilgan va qayta rasmiylashtirilgan sertifikatlar, amal qilish muddati to'xtatilgan sertifikatlar, bekor qilingan sertifikatlar to'g'risidagi ma'lumot har oyda Sertifikatlashtirish milliy tizimining Davlat reyestrini yuritish maqsadida "O'zstandart" agentligiga elektron shaklda taqdim etiladi.

Amal qilish muddati to'xtatilgan sertifikatlar va bekor qilingan sertifikatlar to'g'risidagi axborot tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab uch ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda Markaz tomonidan davlat soliq xizmati organlariga va sertifikatlashtirish obyektining joylashgan joyi bo'yicha ichki ishlar organiga yuboriladi hamda ushbu ma'lumot ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

74. Arizachi yoki sertifikat egasi Markazning qaroridan rozi bo'lmagan holatlarda ushbu qarorga apellyatsiya bilan "O'zstandart" agentligiga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega. "O'zstandart" agentligining apellyatsiya bo'yicha qarori yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

75. Markaz arizachining (sertifikat egasining) o'z faoliyatini amalga oshirishi natijasida olingan o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi.

76. Markaz va arizachilar hamda sertifikat egalari o'rtasida hujjat aylanishi (ariza, hujjatlar va ma'lumotlar, qarorlar, bildirish xatlari, ariza va shu kabilarni berish va yuborish) qog'ozli manbada yoki elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin. Ariza, hujjatlar va ma'lumotlar sifati sertifikatlashtirish maqsadlari uchun zarur bo'lgan axborotni aniqlashga imkon berishi kerak. Markazga kelib tushgan hujjatlar va ma'lumotlar sertifikatlashtirish yoki inspeksiya nazorati jarayonida ularning asl nusxalari bilan solishtiriladi.

77. Amal qilishi to'xtatilgan va bekor qilingan sertifikatlar Markaz tomonidan tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab bir yil o'tgach belgilangan tartibda yo'q qilinishi lozim, bu to'g'rida quyidagi asosiy ma'lumotlar aks ettiriladigan maxsus jurnalda qayd amalga oshiriladi:

- a) qarorning raqami va sanasi;
- b) sertifikat egasining nomi;
- v) ko'rsatiladigan xizmat nomi;
- g) blankaning bosmaxona raqami va Sertifikatlashtirish milliy tizimining Davlat reyestri bo'yicha raqami;
- d) yo'q qilish sanasi.

78. Sertifikatlashtirish va inspeksiya nazoratini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan Markazning hujjatlari sertifikat berilgan kundan boshlab besh yil o'tgach belgilangan tartibda yo'q qilinishi lozim.

79. Arizachilar va sertifikat egalari Markazga vakolatlangan nazorat organlarining (yong'in va sanitariya-gigiyena xavfsizligi, gaz qurilmalari va lift jihozlaridan xavfsiz foydalanish) xulosalari va dalolatnomalarini taqdim etishlari mumkin, ularda sertifikatlashtirish obyektlarining normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi yuzasidan ushbu organlar tomonidan o'tkazilgan to'liq bo'lmagan tekshiruv aks ettirilgan bo'ladi. Aniqlangan dalillar to'g'risida Markaz O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasiga xabar beradi.

Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi vakolatlangan nazorat organlari (yong'in va sanitariya-gigiyena xavfsizligi, gaz qurilmalari va lift jihozlaridan xavfsiz foydalanish) bo'lgan tegishli vazirlik va idoralarga taqdimnoma yuboradi.

80. Ushbu Nizomning talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

Sertifikatga ega bo'lmagan turoperator va mehmonxona xizmatlari ko'rsatadigan, sertifikatlashtirish talablarini buzgan yoki soxta hujjatlardan foydalangan tadbirkorlik subyektlari rahbarlari qonunchilikka muvofiq javob beradilar.

Turoperator va mehmonxona xizmatlarining standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash bo'yicha

SERTIFIKATLASHTIRISH SXEMASI

Субъектлар	Тадбирлар	Бажариш муддати
Аризачи	Ушбу Низомда назарда тутилган ҳужжатларни тайёрлайди ва почта алоқа воситалари орқали ёки электрон шаклда «Туристик хизматларни сертификатлаштириш маркази» ДУКга (кейинги ўринларда Марказ деб аталади) сертификатлаштириш учун ариза беради.	Аризачининг хоҳишига қўра
Марказ	Аризани қўриб чиқади ва сертификатлаштиришни ўтказиш ёки сертификатлаштириш ўтказишни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилади	3 иш куни давомида
Марказ	Аризачига сертификатлаштиришни ўтказиш тўғрисидаги шартномани илова қилиб сертификатлаштиришни ўтказиш тўғрисида ёки рад этиш сабаблари кўрсатиб ўтилган сертификатлаштириш ўтказишни рад этиш тўғрисидаги қарорни юборади.	2 иш куни давомида
Аризачи	Марказнинг банк ҳисоб рақамига пул маблағларини ўтказиш йўли билан сертификатлаштириш тўғрисидаги шартнома бўйича ҳақ тўлашни амалга оширади.	30 кун давомида
Марказ	Комиссия таркибини ва сертификатлаштириш дастурини тасдиқлайди.	3 иш куни давомида
Марказ	Тақдим қилинган сўровнома ҳамда унга илова қилинган ҳужжатлар ва маълумотларнинг норматив ҳужжатлар талабларига мувофиқлигини таҳлил қилади. Хулосани расмийлаштиради ва уни аризачига юборади.	5 иш куни давомида
Марказ	Комиссия сертификатлаштириш объектининг норматив ҳужжатлар талабларига мувофиқлигини баҳолайди, баҳолаш далолатномасини расмийлаштиради ва баҳолаш далолатномасини Марказга тақдим этади.	12 иш кунидан кўп эмас
Марказ	Сертификат бериш ёки сертификат беришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилади.	3 иш куни давомида
Аризачи	Сертификат беришни рад этиш вақтида норматив ҳужжатлар талабларига аниқланган номувофиқликларни бартараф этади. Номувофиқликлар бартараф этилганини тасдиқловчи барча ҳужжатлар билан уларни бартараф этиш тўғрисидаги аризани тақдим этади.	30 кун давомида
Марказ	Сертификат беришни рад этиш учун асос бўлган сабаблар аризачи томонидан ўз вақтида бартараф этилганда — қайта баҳолашни амалга оширади.	3 иш кунидан кўп эмас
Марказ	Сертификат бериш ёки сертификат беришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилади.	2 иш куни давомида
Марказ	Аризачига сертификат бериш (сертификат ва мувофиқлик белгисини қўллаш ҳуқуқини бериш тўғрисидаги битимни илова қилган ҳолда) ёки сертификат беришни рад этиш тўғрисидаги қарорни юборади.	1 иш куни давомида
Аризачи	Сертификат бериш тўғрисида қарор қабул қилинганда — сертификат ва мувофиқлик белгисини қўллаш ҳуқуқини бериш тўғрисида битим тузади.	30 кун давомида
Марказ	Сертификатлаштириш миллий тизимининг Давлат реестрида сертификатни расмийлаштиради ва рўйхатдан ўтказилади. Аризачи вакилига сертификатни беради.	2 иш куни давомида

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi **nizomga**
2-ILOVA

**“TURISTIK XIZMATLARNI SERTIFIKATLASH TIRISH
MARKAZI” DUK**

**Sertifikatlashtirish uchun
ARIZA**

1. _____
(yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnomaga binoan so'rovchining to'liq nomi)
_____ manzil bo'yicha ro'yxatdan o'tgan

(manzil, telefon, faks, elektron pochta)

tadbirkorlik subyekti sifatida ro'yxatdan o'tish to'g'risida guvohnoma:

_____,
(ro'yxatdan o'tish raqami, sanasi, guvohnoma bergan organ nomi)

_____ shaxs nomidan,

(so'rovchi rahbarining lavozimi, F.I.O.)

_____ manzil bo'yicha taqdim etiladigan

(viloyat, tuman, shahar, ko'cha, bino nomeri)

quyida ko'rsatilayotgan:

a) turoperator: _____

(xizmat turlari: kirish turizmi, chiqish turizmi, ichki turizm)

b) mehmonxona: _____

(joylashtirish vositasining turi va nomi, nomer va joylar miqdori)

_____ (mulk maqomi to'g'risida hujjat/ijara shartnomasi bo'yicha foydalaniladi)

xizmatlari _____

(standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar)

_____ da belgilangan talablarga muvofiqligini ma'lum qiladi va standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarga ushbu xizmatlarning muvofiqligini sertifikatlashtirishni so'raydi;

joylashtirish vositasining toifasi aniqlansin

ha

(so'ralayotganining tagiga chizing)

2. Sertifikatlashtirishni o'tkazishda ishtirok etadigan arizachining javobgar shaxsi

_____ (lavozim, F.I.O., telefon, elektron pochta)

3. Arizachi sertifikatlashtirishning qonunchilik tomonidan belgilangan barcha shartlarini bajarishi va sertifikatlashtirishni o'tkazish bo'yicha barcha xarajatlarni to'lashi lozim.

4. Arizaga zarur hujjatlar va ma'lumotlar _____ varaqda ilova qilinadi.

_____ (arizachi rahbarining lavozimi, F.I.O.)

_____ (shaxsiy imzo)

20___ yil _____

MO'

(sana)


(mavjud bo'lsa)

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi **nizomga**
3-ILOVA

Arizachining xodimlari to'g'risida

MA'LUMOTLAR

T/r	Familiyasi, ismi, otasining ismi	Lavozimi	Ma'lumoti (ta'lim muassasasi nomi, ixtisosligi, diplom raqami va berilgan sanasi)	Turizm davlat qo'mitasining malaka sertifikati raqami va berilgan sanasi
1.	2.	3.	4.	5.
_____	_____	_____	_____	_____

(arizachi rahbarining lavozimi, F.I.O.)	(shaxsiy imzo)	
20__ yi  __	MO‘	
(sana)	(mavjud bo‘lsa)	

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**
4-ILOVA

Arizachi tomonidan tuzilgan shartnomalar

RO‘YXATI

T/r	Kontragent (shartnoma tuzgan tomon) nomi	Kontragent ko‘rsatadigan xizmat turi	Shartnoma raqami va sanasi	Shartnomaning amal qilish muddati	Xizmat ko‘rsatish uchun asos bo‘luvchi litsenziyalar, ruxsatnomalar va sertifikatlar raqami, sanasi va amal qilish muddati
1.	2.	3.	4.	5.	6.
	(arizachi rahbarining lavozimi, F.I.O.)		(shaxsiy imzo)		
	20__ yil __		MO‘		
	(sana)		(mavjud bo‘lsa)		

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**
5-ILOVA

Sertifikatlashtirishni o‘tkazish uchun

TO‘LOV MIQDORI

T/r	Nomi	To‘lov miqdori (EKOIHMda)
Turoperator xizmatlari		
1.	Kirish (turistlarni qabul qilish) turizmi	3,4
2.	Chiqish (turistlarni yuborish) turizmi	3,5
3.	Ichki turizm	3,3
	Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xizmatlarning bittadan ortig‘ini sertifikatlashtirishda to‘lov miqdori sertifikatlashtirishning umumiy summasidan 35% ga kamayadi.	
Mehmonxona xizmatlari		
4.	Sig‘imi 10 ta joygacha bo‘lgan joylashtirish vositalari	2,7
5.	Sig‘imi 25 ta joygacha bo‘lgan joylashtirish vositalari	3,8
6.	Sig‘imi 50 ta joygacha bo‘lgan joylashtirish vositalari	6,0
7.	Sig‘imi 100 ta joygacha bo‘lgan joylashtirish vositalari	6,8
8.	Sig‘imi 150 ta joygacha bo‘lgan joylashtirish vositalari	10,7
9.	Sig‘imi 200 ta joygacha bo‘lgan joylashtirish vositalari	12,1
10.	Sig‘imi 350 ta va undan yuqori joygacha bo‘lgan joylashtirish vositalari	13,6
	Joylashtirish vositasining toifasini aniqlash va uni berish vaqtida sertifikatlashtirish bo‘yicha	

	xizmatlarga to'lov miqdori yuqorida ko'rsatib o'tilganning 200% miqdorida belgilanadi.	
	Inspeksiya nazorati uchun to'lov miqdori yuqorida ko'rsatib o'tilgan to'lovning 50% miqdorida belgilanadi.	
11.	Sertifikatni qayta rasmiylashtirish	0,5
12.	Sertifikat dublikatini berish	0,5

Izohlar:

1. Sertifikatlashtirish bilan bog'liq ishlarni o'tkazishda to'lanadigan to'lov miqdorini hisoblash uchun sertifikatlashtirish shartnomasi rasmiylashtirilgan kunda belgilangan EKOIHM (eng kam oylik ish haqi miqdori) qo'llanadi.

2. Sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar (xizmatlar) narxi yuqorida ko'rsatib o'tilgan sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni bajarish uchun to'lov miqdorini ushbu Nizomning 5b-ilovasida ko'rsatilgan tegishli koeffitsiyentga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga
5a-ILOVA

Sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llash uchun TO'LOV MIQDORLARI

T/r	Sertifikatlashtirilgan xizmatlar ko'rsatishdan uch yilda tushgan daromadning prognoz qilingan hajmi (QQSsiz)	Muvofiqlik belgisini qo'llash uchun to'lov (daromadning prognoz qilingan har bir 10 mln. so'miga)
1.	10 000 mln. so'mdan ko'p emas	eng kam oylik ish haqining 0,05 miqdorida
2.	10 000 mln. so'mdan yuqori	eng kam oylik ish haqining 0,025 miqdorida

Izohlar:

1. To'lanadigan to'lov miqdorini hisoblash uchun bitim rasmiylashtirilgan kunda belgilangan EKOIHM qo'llanadi.

2. Rahbarlik funksiyalari va buxgalterlik hisobi funksiyalarini amalga oshiruvchi shaxslarning hamda reja bo'limi (shtat jadvalida bo'lganda) boshlig'ining muhr bilan (mavjud bo'lganda) tasdiqlangan imzolari qo'yilgan arizachining yozma deklaratsiyasi sertifikatlashtirilgan xizmatlar ko'rsatishdan uch yilda tushgan daromadning prognoz qilingan hajmining tasdig'i hisoblanadi.

3. Sertifikat va muvofiqlik belgisini qo'llash uchun to'lov miqdori yuqorida ko'rsatib o'tilgan to'lovni ushbu Nizomning 5b-ilovasida ko'rsatilgan tegishli koeffitsiyentga ko'paytirish yo'li orqali aniqlanadi.

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga
5b-ilova

O'zbekiston Respublikasining hududlari bo'yicha to'lovlarga doir KOEFFITSIYENTLAR

T/r	Mintaqa	Shahar va tuman markazlari	Qishloq aholi punktlari
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,7	0,7
2.	Andijon viloyati	1,1	0,7
3.	Jizzax viloyati	1,1	0,7
4.	Qashqadaryo viloyati	1,2	0,8
5.	Namangan viloyati	1,1	0,7
6.	Navoiy viloyati	1	0,7
7.	Surxondaryo viloyati	0,9	0,6
8.	Sirdaryo viloyati	0,7	0,7
9.	Toshkent viloyati	1,3	1,3
10.	Farg'ona viloyati	1,2	0,7
11.	Samarqand viloyati	1,6	0,7

12.	Buxoro viloyati	1,5	0,7
13.	Xorazm viloyati	1,2	0,7
14.	Toshkent sh.	1,8	–

Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)
6-ILOVA

Sertifikatlashtirish obyektining nomuvofiqligi to'g'risida
DALOLATNOMA

Аризачи/сертификат эгасининг номи:		№ _____
Аризачи/сертификат эгаси бўлинмасининг номи:		
Сертификатлаштириш объектига талабларни белгилайдиган норматив ҳужжат рақами:	Норматив ҳужжат бандлари:	
Сифат бўйича эксперт-аудитор:	Аризачи/сертификат эгасининг масъул шахси:	
Сифат бўйича эксперт-аудитор томонидан аниқланган номувофикликлар:		
1. _____		
2. _____		
.....		
Сифат бўйича эксперт-аудитор имзоси:		Сана:
Аниқланган номувофикликларга қўшиламан (аризачи/сертификат эгасининг масъул шахси)		Ҳисоботга қўшилмайман (аризачи/сертификат эгасининг масъул шахси)
Имзо	Сана:	Имзо: Сана:
Ёзма тушунтириш илова қилинади		
Аниқланган номувофикликларни бартараф этиш бўйича аризачи/сертификат эгасининг чора-тадбирлари:		
1. _____		
2. _____		
.....		
Аризачи/сертификат эгаси масъул шахсининг имзоси:		Сана:
Чора-тадбирга қўшиламан		Чора-тадбирга қўшилмайман
Сифат бўйича эксперт-аудитор имзоси:		Сана:
Номувофикликларни бартараф этиш тўғрисида сифат бўйича эксперт-аудиторнинг қайдлари:		
1. _____		
2. _____		
.....		
Сифат бўйича эксперт-аудитор имзоси:		Сана:

Tuoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)
7-ILOVA

Joylashtirish vositasini tasniflash
PROTOKOLI

(sertifikatlashtirish obyektining nomi)

T/r	Normativ hujjat talablari	Tasniflash tizimi					Muvofiqlik to'g'risida qay
		*	**	***	****	*****	
1	2	3	4	5	6	7	8

Komissiya raisi:

_____ (shaxsiy imzo)

_____ (F.I.O.)

Komissiya a'zolari:

_____ (shaxsiy imzo)

_____ (F.I.O.)

Baholash arizachi/sertifikat egasining mas'ul shaxsi ishtirokida amalga oshirildi:

_____ (lavozim, F.I.O.)

_____ (shaxsiy imzo)

20__ yil ____
(sana)

**Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizamga
8-ILOVA**

**Sertifikatlashtirish obyektini baholash
PROTOKOLI**

(sertifikatlashtirish obyektining nomi)

T/r	Normativ hujjatlar talablari	Normativ hujjatlarning belgilanishi va bandi	Haqiqiy holati
1.	2.	3.	4.

Komissiya raisi:

_____ (shaxsiy imzo)

_____ (F.I.O.)

Komissiya a'zolari:

_____ (shaxsiy imzo)

_____ (F.I.O.)

Baholash arizachi/sertifikat egasining mas'ul shaxsi ishtirokida amalga oshirildi:

_____ (lavozim, F.I.O.)

_____ (shaxsiy imzo)

20__ yil ____
(sana)

**Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizamga
9-ILOVA**

**Sertifikatlashtirish obyektini baholash/inspeksiya nazoratining
— son DALOLATNOMASI**

20__ yil ____

“Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK rahbarining 20__ yil “__” _ dagi buyrug'iga muvofiq, tarkibida komissiya raisi _____
komissiya a'zolari _____ bo'lgan komissiya

(F.I.O., lavozimi)

(F.I.O., lavozimi)

20__ yil “__” _____ dan 20__ yil “__” _____ gacha arizachi/sertifikat egasining mas'ul shaxsi

_____ (lavozim, F.I.O., telefon, elektron pochta)

ishtirokida

_____ talablariga

_____ (standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar)

_____ ning

_____ (sertifikatlashtirish obyektining nomi va manzili)

muvofiqligiga sertifikatlashtirish/inspeksiya nazoratini o'tkazish maqsadida

_____ (arizachi/sertifikat egasining nomi va manzili)

arizachi/sertifikat egasi tomonidan ko'rsatiladigan turoperator/mehmonxona xizmatlarini baholadi.

Baholash vaqtida: _____ belgilandi.

Komissiya tavsiyasi: _____.

Komissiya xulosasi: _____.

Ilovalar: _____.

(baholash dalolatnomalari, nomuvofiqlik dalolatnomalari va inspeksiya nazoratida —
sertifikat)

Komissiya raisi:

_____ (shaxsiy imzo)

_____ (F.I.O.)

Komissiya a'zolari:

_____ (shaxsiy imzo)

_____ (F.I.O.)

Dalolatnoma bilan tanishdim va bitta nusxasini oldim:

_____ (arizachi rahbari/sertifikat egasining lavozimi, F.I.O.)

_____ (shaxsiy imzo)

20__ yil ____

(sana)

MO'

(mavjud bo'lsa)

**Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga
10-ILOVA**

(blankaning bosmaxona raqami)

**O'zbekiston Respublikasi
sertifikatlashtirish milliy tizimi**

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi

"Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi" DUK

MUVOFIQLIK SERTIFIKATI

Sertifikatlashtirish milliy tizimining

(muvofiqlik belgisi)

Davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazish

№: _____ ro'yxatga olish

sanasi: _____ gacha amal qiladi

_____ manzilda joylashgan,

_____ tomonidan ko'rsatilayotgan

(sertifikat egasining nomi va manzili)

turoperator xizmatlarining _____ da belgilangan

(standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlar)

talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Sertifikat: _____ ga taalluqli.

(kirish, chiqish va ichki turizm)

Qo'shimcha _____.

ma'lumotlar

Sertifikat _____ asosida berilgan.

(markaz qarorining raqami va sanasi)

Markaz direktori _____

(shaxsiy imzo)

_____ (F.I.O.)

MO'

**Turoperator va mehmonxona xizmatlarini sertifikatlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomga
11-ILOVA**

(blankaning bosmaxona raqami)

O'zbekiston Respublikasi

sertifikatlashtirish milliy tizimi

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi

“Turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi” DUK

MUVOFIQLIK SERTIFIKATI

Sertifikatlashtirish milliy tizimining

(muvofiqlik belgisi)

Davlat reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazish №: _____
ro‘yxatga olish sanasi: _____ gacha amal
qiladi

_____ manzilda joylashgan,
(sertifikat egasining nomi va manzili)

_____ (joylashtirish vositasining nomi va turi)

_____ tomonidan ko‘rsatilayotgan
(sertifikat egasining nomi va manzili)

mehmonxona xizmatlarining _____ da belgilangan
(standartlashtirish bo‘yicha normativ hujjatlar)

talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi.

Joylashtirish vositasiga _____ toifasi berildi.

Sertifikat: _____ ga taalluqli.
(nomerlar va joylar soni)

Qo‘shimcha _____
ma’lumotlar _____

Sertifikat _____ asosida berilgan.
(markaz qarorining raqami va sanasi)

Markaz direktori _____
(shaxsiy imzo) (F.I.O.)

MO‘

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 23-son, 477-modda; Qonun hujjatlari
ma’lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 09/18/631/1638-son)*